



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISNING INSON  
HUQUQLARI BO‘YICHA VAKILI (OMBUDSMAN) INSTITUTI: TARIXI,  
VAZIFALARI VA FAOLIYATINING TAHLILI**

Nurilloev Shavkat Shuxrat o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari  
mutaxassisligi magistrature bosqichi talabasi

**ИНСТИТУТ УПОЛНОМОЧЕННОГО ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА  
(ОМБУДСМЕНА) ПРИ ОЛИЙ МАЖЛИСЕ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН: ИСТОРИЯ, ФУНКЦИИ И АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Нуриллоев Шавкат Шухрат угли

Студент магистратуры Ташкентского государственного юридического  
университета по специальности “Международное право и права человека”

**THE INSTITUTION OF THE COMMISSIONER FOR HUMAN RIGHTS  
(OMBUDSMAN) UNDER THE OLIY MAJLIS OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN: HISTORY, FUNCTIONS, AND ACTIVITY ANALYSIS**

Nurilloev Shavkat Shukhrat ugli

Master's student at Tashkent State University of Law, specializing in “International  
Law and Human Rights”

**Annotatsiya:**

Ushbu tezis O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) institutining tarixi, tuzilishi, vakolatlari, faoliyat prinsiplari va xalqaro hamkorliklarini keng yoritadi. Shuningdek, Ombudsmanning faoliyati natijalari, fuqarolar murojaatlari tahlili va qamoqxonalardagi monitoring tashriflari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Institutning mustaqilligi, adolat va qonuniylikni ta’minlashdagi roli hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi asosiy e’tibor markazida bo‘lib, inson huquqlari himoyasidagi muhim yutuqlari ta’kidlanadi.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

**Kalit soʻzlar:** Ombudsman, inson huquqlari, Oʻzbekiston, Oliy Majlis, qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, xalqaro hamkorlik, fuqarolar murojaatlari, qamoqxona monitoringi, Parij prinsiplari.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bugungi kunda demokratik jamiyatlarning asosiy prinsiplaridan biridir. Dunyoning koʻplab mamlakatlarida ushbu masʼuliyatni oʻz zimmasiga olgan muassasalardan biri Ombudsman institutidir. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (Ombudsman) instituti mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish, adolat va qonuniylikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Ushbu tezisda Oʻzbekistonda Ombudsman institutining tashkil topish tarixi, qonunchilik asoslari, faoliyat prinsiplari, vakolatlari, xalqaro hamkorliklari va 2025 yilning birinchi choragidagi faoliyati haqida batafsil maʼlumot beradi.

Ombudsman Instituti: Umumiy Tushuncha va Tarixiy Kelib Chiqishi. “Ombudsman” soʻzi shved tilidan kelib chiqqan boʻlib, “vakil” yoki “fuqarolar nomidan ish koʻruvchi” maʼnosini anglatadi. Bu atama bugungi kunda dunyoning koʻplab davlatlarida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi institut sifatida keng qoʻllaniladi. Ushbu tushuncha dastlab Shvetsiyada XVIII asr oxirlarida shakllangan boʻlib, 1809 yildan boshlab Shvetsiya parlamenti huzurida rasmiy faoliyat yurita boshlagan.

Shved qiroli tomonidan tashkil etilgan Ombudsman instituti fuqarolar huquqlarini davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlaridan himoya qilishga xizmat qilgan. Tarixiy manbalarga koʻra, Shvetsiya qiroli bu tizimni islom davlatlarida faoliyat yuritgan muhtasiblar tajribasidan oʻrgangan. Muhtasiblar shariat qonunlari asosida bozorlarda adolatni taʼminlagan, fuqarolar shikoyatlarini koʻrib chiqqan va davlat organlarining faoliyatini nazorat qilgan. Bu tizim oʻz davrida inson huquqlarini himoya qilishning dastlabki shakllaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega edi.

XVII asrda Shvetsiya qirolligiga qarshi uyushtirilgan hujumlar natijasida qirol hozirgi Turkiya hududiga qochib oʻtishga majbur boʻlgan. U yerda turk sultonining himoyasi ostida boʻlib, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi tizimlarni kuzatgan. Oʻz vataniga qaytganidan soʻng, qirol ushbu tajribani “Ombudsman” nomi bilan oʻz



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

davlatida joriy etgan. Ushbu tizim keyinchalik Yevropaning boshqa davlatlarida ham ommalashib, inson huquqlari himoyasining muhim institutiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘z tarixida ham inson huquqlari himoyasi bo‘yicha qadimiy an‘analar mavjud. Masalan, ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo o‘zining Amir Temur huzuriga tashrifi haqidagi kundaligida Temur davrida fuqarolar shikoyatlarini ko‘rib chiqish va rahbarlarning mas‘uliyatini ta‘minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rilganini qayd etgan. Agar rahbarlar Amir Temur tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmagan bo‘lsa yoki fuqarolar murojaatlari bilan ishlamagan bo‘lsa, ular ko‘pchilik oldida jazolangan. Bu holat o‘sha davrda inson huquqlari va adolatni ta‘minlashga qaratilgan tizimning mavjudligini ko‘rsatadi. Klavixoning yozishicha, bunday choralar nafaqat tartib-intizomni ta‘minlagan, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynagan. O‘zbekistonda Ombudsman Instituti: Tashkil Topishi va Qonunchilik Asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995-yilda tashkil etilgan. Bu institut Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) hududida inson huquqlari himoyasi bo‘yicha tashkil etilgan birinchi muassasalardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonning mustaqillik yillarida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar doirasida ushbu institut fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.

Ombudsman institutining faoliyati 1997-yil 24-aprelda Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun institutning vazifalari, vakolatlari va faoliyat prinsiplarini belgilab berdi. 2017 yilda qonun yangi tahrirda qabul qilinib, zamonaviy talablar va inson huquqlari himoyasi sohasidagi xalqaro standartlarga moslashtirildi. Yangi tahrirdagi qonun Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, uning mustaqilligini mustahkamlash va fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonlarini yanada samarali qilishga xizmat qildi.

Qonunga ko‘ra, Ombudsman o‘z faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshiradi va davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga tobe emas. U faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdor bo‘lib, Qonunchilik palatasi va Senat



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Bu mustaqillik Ombudsmanning adolatli va xolis qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi.

Ombudsman institutining faoliyati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

1. Qonuniylik: Barcha faoliyat qonun doirasida amalga oshiriladi.
2. Adolatparvarlik: Fuqarolar huquqlarini himoya qilishda xolislik va tenglik ta'minlanadi.
3. Demokratizm: Fuqarolar uchun ochiq va demokratik jarayonlar orqali ish yuritiladi.
4. Insonparvarlik: Inson huquqlari va qadr-qimmati har doim ustuvor hisoblanadi.
5. Oshkoralik: Faoliyat shaffof va jamoatchilikka ochiq bo'ladi.
6. Har bir inson uchun ochiqlik: Har bir fuqaro Ombudsman xizmatlaridan teng foydalana oladi.

Bu prinsiplar Ombudsman faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab, uning fuqarolar ishonchiga sazovor bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, oshkoralik prinsipi tufayli Ombudsman har yili o'z faoliyati bo'yicha hisobotlar e'lon qiladi, bu esa fuqarolar va jamoatchilikning institutga ishonchini oshiradi.

Ombudsman instituti fuqarolar huquqlarini himoya qilishda keng vakolatlarga ega. Ushbu vakolatlar qonun bilan belgilangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tashkilotlarga moneliksiz kirish: Ombudsman davlat organlari, tashkilotlar va muassasalarga hech qanday to'siqsiz kirish huquqiga ega. Bu, masalan, qamoqxonalar yoki boshqa muassasalardagi sharoitlarni tekshirishda muhim ahamiyatga ega.
- Sudlarga murojaat qilish: Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish uchun Ombudsman sudlarga davlat boji to'lamasdan murojaat etishi mumkin. Bu fuqarolarga adolatga erishishda moliyaviy to'siqlarni bartaraf qiladi.
- Taqdimnomalar kiritish: Ombudsman davlat organlari va tashkilotlarga majburiy ko'rib chiqiladigan taqdimnomalar kiritadi. Bu taqdimnomalar belgilangan muddatlarda javob berilishi shart.
- Qamoqda saqlanayotgan shaxslar bilan suhbatlar: Ombudsman hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazishi mumkin. Bu ularning huquqlari himoya qilinayotganligini ta'minlaydi.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

- Ma'lumot so'rash: Ombudsman mansabdor shaxslardan tushuntirishlar, hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni so'rab olishi mumkin.

- Xalqaro hamkorlik: Ombudsman xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Ushbu vakolatlar Ombudsmanning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qilishiga imkon beradi. Masalan, qamoqxonalardagi monitoring tashriflari davomida Ombudsman mahkumlarning saqlash sharoitlarini tekshiradi va ularning huquqlari buzilishini oldini oladi.

Xalqaro Hamkorlik va A'zolik. O'zbekiston Ombudsmany o xalqaro miqyosda faol ishtirok etadi va inson huquqlari himoyasi sohasida global tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Institut quyidagi xalqaro tashkilotlarda a'zo sifatida faoliyat yuritadi:

- Xalqaro Ombudsman Instituti (IOI): Dunyo miqyosidagi ombudsmanlar tarmog'i bo'lib, tajriba almashish va inson huquqlari himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Yevropa Ombudsman Instituti: Yevropa mamlakatlaridagi ombudsmanlarning hamkorligini rivojlantiradi.

- Osiyo Ombudsmanlar Assotsiatsiyasi: Osiyo mintaqasida inson huquqlari himoyasini rivojlantirishga qaratilgan tashkilot.

O'zbekiston Ombudsmany o Shvetsiya, Ispaniya, Portugaliya, Polsha, Janubiy Koreya, Slovakiya, Bolgariya, Latviya, Rossiya, Yaponiya, Tailand, Fransiya va Ozarbayjon kabi davlatlarning ombudsmanlari bilan 10 dan ortiq hamkorlik bitimlari imzolagan. Bu bitimlar tajriba almashish, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Ombudsman, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YeXHT) shartnomalari ijrosi bo'yicha O'zbekistonning hisobotlarini tayyorlashda ishtirok etadi. Xalqaro forumlar, chet el delegatsiyalarini qabul qilish va xorijiy ombudsmanlarning murojaatlarini ko'rib chiqish ham institut faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

2020-yilda Milliy inson huquqlari muassasalarining Global Alyansi (MIHHQMGA) tomonidan O'zbekiston Ombudsmany o Parij prinsiplariga muvofiqligi bo'yicha



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

akkreditatsiyadan o'tkazildi va unga "B" maqomi berildi. Parij prinsiplari inson huquqlari muassasalarining mustaqilligi, shaffofligi va samaradorligini baholashning xalqaro standartlari hisoblanadi. "B" maqomi O'zbekiston Ombudsmany o xalqaro standartlarga mos kelishini tasdiqlaydi, lekin yanada rivojlanish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

2025-yilning birinchi choragida O'zbekistonda Ombudsman fuqarolar, xorijiy davlatlar fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va yuridik shaxslardan jami 6042 ta murojaat qabul qildi. Ushbu murojaatlarning tahlili institutning faoliyatining keng doirasini va fuqarolar hayotidagi muammolarni hal qilishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Murojaatlarning aksariyati quyidagi yo'nalishlarda bo'lgan:

- Iqtisodiy huquqlar (26.6%): Ish haqi, mehnat munosabatlari va moliyaviy masalalar bilan bog'liq shikoyatlar.
- Ijtimoiy huquqlar (23.4%): Sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy yordam sohasidagi muammolar.
- Shaxsiy huquq va erkinliklar (14.6%): Shaxsiy erkinliklarning buzilishi bilan bog'liq holatlar.
- Siyosiy huquqlar (9.1%): Saylov huquqlari va boshqa siyosiy erkinliklar.
- Bola huquqlari (3.5%): Bolalarga nisbatan huquq buzilishlari.
- Ekologik huquqlar (0.8%): Atrof-muhit bilan bog'liq shikoyatlar.
- Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar (12.2%): Qamoqxonalarda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari.
- Boshqa masalalar (9.7%): Turli xil shikoyatlar va murojaatlar.

Eng ko'p murojaatlar Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahridan kelib tushgan bo'lsa, eng kam murojaatlar Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan qayd etilgan. Bu hududiy farqlar iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy omillarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ombudsman tomonidan 2025-yilning 1-choragida fuqarolar huquqlarini tiklash bo'yicha quyidagi muhim natijalarga erishildi:

- Moliyaviy yordam: Jami 1 mlrd 407,2 mln so'm fuqarolar foydasiga undirildi, shundan 969,2 mln so'mi ish haqi va mehnat munosabatlari bilan bog'liq edi.



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

- Ishga joylashish: 8 nafar fuqaro ishga tiklandi yoki yangi ish joyi bilan ta'minlandi.
- Aliment undirish: 145 mln so'mdan ortiq aliment to'lovlari fuqarolar foydasiga undirildi.
- Ijtimoiy yordam: 32,4 mln so'mga yaqin moddiy yordam, subsidiyalar va boshqa moliyaviy yordam ajratildi.
- Nogironlik va ijtimoiy himoya: 5 nafar nogiron fuqaroga nogironlikni belgilash va ijtimoiy yordam olishda ko'maklashildi.
- Tibbiy yordam: 8 nafar fuqaroga tibbiy ko'rik va davolanish uchun yo'llanma berildi, 54,9 mln so'm tibbiy yordam uchun ajratildi.
- Ekologik huquqlar: Farg'ona shahridagi noqonuniy qurilish ishlari to'xtatildi.

### Qamoqxonalardagi Monitoring

Ombudsman 2025-yilning 1-choragida harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 202 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirdi. Ushbu tashriflar davomida 2000 dan ortiq mahkum bilan jamoaviy suhbatlar va 1123 nafar mahkum bilan individual suhbatlar o'tkazildi. Monitoring natijasida qamoqxonalardagi saqlash sharoitlari, ovqatlanish, tibbiy yordam va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning sifati tekshirildi.

Monitoring natijasida aniqlangan muammolarni hal qilish uchun bir qator choralar ko'rildi:

- Surxondaryo viloyatidagi 9-sonli tergov hibsxonasiga 4,5 mlrd so'm ajratilib, kapital ta'mirlandi.
- Buxorodagi "Muruvvat" nogiron ayollar internat uyiga 176 mln so'm ta'mirlash uchun ajratildi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasidagi hushyorxona sharoitlari yaxshilandi.

Ombudsman tomonidan kiritilgan taqdimnomalar asosida 3 nafar mas'ul shaxsga "hayfsan" intizomiy jazosi berildi, 1 nafar mas'ulga Jinoyat kodeksining 116 va 117-moddalari bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atildi. Shuningdek, 7 nafar fuqaro ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16<sup>th</sup> June, 2025

o‘ynaydi. Institutning mustaqil faoliyati, xalqaro hamkorliklari va fuqarolar murojaatlariga tezkor javob berishi adolat va qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi. 2025-yilning birinchi choragidagi faoliyat natijalari Ombudsmanning fuqarolar hayotidagi muammolarni hal qilishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Kelajakda institutning xalqaro standartlarga yanada moslashishi va fuqarolar ishonchini mustahkamlashi kutilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi 15.11.2024 yildagi O‘RQ-1002-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-7223219>.
2. Ombudsman so‘zining tarixi.  
<https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>.
3. O‘zbekistonda Ombudsman institutining tashkil etilishi.  
<https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yilning 1-choragida amalga oshirgan ishlari va faoliyat natijalariga bag‘ishlangan brifing.  
[https://support.google.com/chrome/answer/95617?visit\\_id=638855008904698846-1466420167&p=ui\\_security\\_indicator&rd=1](https://support.google.com/chrome/answer/95617?visit_id=638855008904698846-1466420167&p=ui_security_indicator&rd=1).
5. A.R.Mo‘minov, M.A.Tillaboyev. Inson huquqlari. – T.: Adolat, 2013. 504 b.